

FAVQULOTDA VAZIYATLAR HAMDA ULARNI OLDINI OLISH VA BARTARAF ETISH TIZIMI

Oltiyev Shukrullo

FVV akademiyasi 3-bosqich kursanti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada favqulodda vaziyatlar haqida shuningdek, uni oldini olish, bartaraf etish to'g'risida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar. *Favqulodda vaziyat, aholi, hudud, tabiiy ofat, texnogen avariya, hodisa, inson.*

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng mamlakatimizda aholi va hududlarni tabiiy ofatlar, texnogen avariya va falokatlardan himoya qilish bo'yicha yaxlit davlat tizimi, zarur me'yoriy-huquqiy baza shakllantirildi. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish, aholini falokatlar (paytida) davrida harakat qilishga tayyorlash borasida ko'lami va mazmuni jihatidan ulkan tadbirlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, mamlakat aholisini va hududlarini tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofa qilish siyosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Yurtboshimizning "Mamlakatimizda olib borilyotgan islohatlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish, hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha mutloqo yangicha tamoyillar ishlab chiqishdan iboratdir" degan fikrlarida har bir sohani rivojlantirish va uning istiqbollari belgilash nazarda tutilgandir. Yurtimizni turli javhalarda rivojlantirish, belgilangan vazifalarni bajarish, aholini xavfsizligi ta'minlash bo'yicha mahalliy hokimiyat organlari, davlat va xo'jalik boshqaruv organlari faoliyatiga qo'shimcha vazifalar yuklandi.

Favqulodda vaziyatlar – tabiiy ofatlar, texnogen avariya yoki boshqa kutilmagan hodisalar natijasida yuzaga keladigan va inson hayotiga, sog'lig'iga, muhitga va iqtisodiyotga jiddiy tahdid soladigan voqealardir.

So'nggi yillarda Oliy Majlis tomonidan yangi asrda aholining xavfsizligini kafolatlovchi, fuqarolar mas'uliyati va jamiyat taraqqiyotining huquqiy zaminini belgilovchi bir nechta qonunlar qabul qilindi. "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida", "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida", "Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishining (OIV kasalliganing) oldini olish to'g'risida", "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida", "Fuqaro muhofazasi to'g'risida", "Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida", "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida", "Terrorizmga qarshilik kurash tug'risida"gi qonunlar shular jumlasidandir. Yuqorida sanab o'tilgan qonunlar ichida 1999 yil 20 avgustda qabul qilingan "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun favqulodda vaziyatlardan muhofaza

qilish sohasidagi asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Ushbu qonun aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodaa vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi va rivojlanishining oldini olish, favqulodda vaziyatlar keltiradigan talafotlarni kamaytirish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni maqsad qilib qo'yadi.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning asosiy tamoyillari insonparvarlik, inson hayoti va sog'ligining ustuvorligi; oshkoralik; axborotning o'z vaqtida berilishi va ishonchli bo'lishi; favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish choralarining oldindan ko'rilishidan iborat, II bo'limda – “Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishni ta'minlash tizimi” (6—14-moddalar) - muhofaza tizimini tashkil etuvchi organlar, ularning vazifalari haqida so'z yuritiladi. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi (FVDT), Vazirlar Mahkamasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, vazirliklar, idoralar, mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning majburiyatlari belgilab berilgan.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiy etgani sari sanoat ob'ektlarining soni va qazilma boyliklarning o'zlashtirish miqdori ortib boradi. Bu tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar soni ham ortib boraverishiga sababchi bo'ladi. Bunday sharoitda aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan aholining barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibi belgilab berilgan. Bunda aholini tayyorlashda asosiy vazifalar qilib quyidagilar belgilangan:

- davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari, ishchi va xizmatchilarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda fuqaro muhofazasi bo'yicha bilimlarini izchil oshirib borish va ko'nikmalarini hosil qilish;
- qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari, shuningdek, fuqaro muhofazasi tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga tayyorlash;
- aholini, shu jumladan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lmaganlarni, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalari talabalarini favqulodda vaziyatlarda muhofazalanish, jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish, jamoaviy va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari va usullariga o'rgatish.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun samarali tizim yaratish har qanday davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizimning samaradorligi esa, oldindan rejalashtirish, ogohlantirish, javob berish va tiklash ishlarining muvofiqlashtirilganligi bilan belgilanadi. Favqulotda vaziyatlarning oldini olish: Favqulotda vaziyatlarning oldini olish – bu ularning yuzaga kelish ehtimolini kamaytirishga qaratilgan choralar majmuasidir. Bu quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga olishi mumkin:

- Xavflarni aniqlash va baholash: Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hududlarni aniqlash, potentsial xavflarni baholash va ularning ehtimolini aniqlash. Bu geologik, gidrologik, meteorologik va boshqa ma'lumotlar tahlili orqali amalga oshiriladi.

- Qurilish va infratuzilma: Favqulodda vaziyatlarga chidamli binolar va inshootlar qurish, muhandislik kommunikatsiyalarining ishonchliligini oshirish. Bu standartlarga rioya qilish, zamonaviy materiallar va texnologiyalardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

- Atrof-muhitni muhofaza qilish: Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni ifloslanishdan himoya qilish, o'rmonlarni saqlash va boshqa ekologik choralar Favqulodda vaziyatlarning oldini olishga yordam beradi.

- Ta'lim va targ'ibot: Aholini Favqulodda vaziyatlar haqida xabardor qilish, ularning oldini olish va ularga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha bilimlarini oshirish. Bu o'quv mashg'ulotlari, axborot kompaniyalari va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan aholini tayyorlashning eng samarali usuli va oliy shakli deb o'quv mashqlari e'tirof etilib keng miqyosda har xil toifadagi ob'ektlar, tashkilotlar va fuqarolarni jalb etgan holda o'tkaziladigan o'quv mashqlari tan olingan. Shu sababli joylarda kompleks o'quv mashqlari, qo'mondonlik-shtab o'quv mashqlari, maxsus-taktik o'quv mashqlari, ob'ekt o'quv mashg'ulotlari o'tkazish belgilab qo'yilgan. O'tkazilib kelinayotgan bunday o'quv mashqlariga Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan metodik yordam ko'rsatib kelinmoqda. Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlashning ahamiyati katta ekanligi hisobga olinib Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va Maktabgacha ta'lim vazirliklari bilan kelishgan holda hayotiy faoliyat xavfsizligi va fuqaro muhofazasi yo'nalishlaridagi o'quv dasturlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirilib borilmoqda. Bundan tashqari Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi institutida har 3 yilda bir marta respublika va viloyat miqyosidagi tashkilotlar rahbarlari va mas'ul mutaxassislari, shuningdek, tumanlar va shaharlar hokimlari hamda ularning o'rinbosarlarining malakalari oshirilib, qayta tayyorlanmoqda. Joylarda tashkil etilgan "Hayot faoliyati xavfsizligi" o'quv markazlarida 3 yilda bir marta tumanlar va shaharlar miqyosidagi tashkilotlar rahbarlari va mas'ul mutaxassislari, qutqaruv xizmatlari, qutqaruv tuzilmalari va fuqaro muhofazasi tuzilmalari boshliqlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rahbarlarining malakasi oshirilib, qayta tayyorlanmoqda.

Shunday qilib, Favqulodda vaziyatlar vazirligi aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash borasida keng qamrovli vakolatlarga ega bo'lib, ushbu vakolatlar aholining keng qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash uchun yetarli bo'la oladi.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi doimiy ravishda takomillashtirilib borilishi kerak. Bu yangi texnologiyalarni qo'llash, xalqaro

tajriba almashish va aholi tayyorgarligini oshirish orqali amalga oshiriladi. Faqatgina shu yo'l bilan biz Favqulotda vaziyatlarning salbiy oqibatlarini kamaytirishimiz va aholining xavfsizligini ta'minlashimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida" qonuni, 2022- yil 17-avgustdagi O'RQ-790-son

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 10 apreldagi "Favqulodda vaziyatlar tuzilmalarining faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4276-sonli qarori.

3. Xolbaev B.M., Raximov O.D., Maxmatkulov N.I. Hayot faoliyati xavfsizligi" darslik (2 qismi). - : «Voriz-nashriyot», 2020. 304 s.

4. I.Nigmatov, M.Tojiyev.Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. Darslik: - T 2011.

5. A. M. Яхёхўжаева, Н. С.Саидхўжаева. Замонавий шароитларда фавқулodда вазиятларда бошқариш ва режалаштириш тамойиллари ва усуллари. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 2 | 2022 ISSN: 2181-1385